

UDK:635.1/.9.

**TURLI SHAROITLARDA MANZARALI CHINOR (*PLATANUS ORIYENTALISL*) URUG'NI UNIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI**

*Nazirjonov Ibrohimjon Anvarjon o'g'li<sup>1</sup>*

*Yulbasov Avazbek Muhtarovich<sup>2</sup>*

*Sultonov Xumoyun Mahmudjon o'g'li<sup>3</sup>*

*nazirjonovi@mail.ru<sup>1</sup>*

*avazbekayulbarsov@gmail.com<sup>2</sup>*

*xumoyunsu@gamil.com<sup>3</sup>*

*O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti*

*Andijon filiali ilmiy xodimlari*

**Annotatsiya:** Maqolada turli sharoitlarda manzarali chinor (*platanus oriyentalsl*) urug'ni unib chiqishi va rivojlanishi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Bunda manzarali sharq chinori urug'larini biogomusda undirib ko'chat tayyorlash samarali ekanligi aniqlangan va tavsiya etilgan.

**Kalit so'zlar.** O'rmon, sharq chinori, ko'chat, nihol, chinor, agrotexnik talablar, unib chiqish, rivojlanish, variant, urug'

**Annotation:** The article presents the results of research on the germination and development of seeds of ornamental plane tree (*Platanus oriyentalsl*) under various conditions. At the same time, it was established and recommended to collect seeds of the Eastern maple in biogumus and to carry out effective preparation of seedlings.

**Keywords:** Forest, oriental maple, sapling, sapling, maple, agrotechnical requirements, germination, development, variant, seeds

Respublikamiz xududlarida o'rmon xo'jaliklarini tashkil etish, ularni maydonlarni kengaytirish va rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamma ishlar olib borilmoqda.

Davlat rahbarining 2017 yil 11-maydagi farmoni bilan O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi tashkil etilib, O'rmon xo'jaligini rivojlantirish sohaga oid huquqiy asoslar yanada takomillashtirilmoqda. Bu borada 2018 yil 17 aprelda yangi tahrirdagi "O'rmon to'g'risida"gi qonun kuchga kirdi.

Respublikamizda chinor daraxtini yetishtirish hajmi urug'lik zahiralarining shakllanish darajasi va ularni yetishtirishning mintaqaviy agrotexnologiyalarining ishlab chiqarilmaganligi bilan belgilanadi. SHu bois chinor ko'chatini biologik xususiyatlarini aniqlash va ularning yetishtirishda samarali usullarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tadqiqot ishlari natijalari asosida chinor

ko'chatlarini yetishtirishning agrotexnologiyasi ishlab chiqilmoqda. Ularni amaliyotda qo'llash olingan natijalar asosida sifatli xom-ashyo olish imkoniyatini yaratiladi.

Chinor daraxtini oilasi faqat bir turkumdan - Chinor (*Platanus*) turkumidan iborat bo'lib, uning vakillari yopiq uruglilaming eng qadimiylar turlaridan biri hisoblanadi. Chinorlar tez o'sishi bilan ajralib turadi, 30-40 m balandlikkacha o'sib, tekis rivojlangan tanasiga ega bo'ladi. Barglari yirik, shakliga ko'ra zarang barglariga o'xshash. Chinorlar bir uyli. Mevalari dumaloq sharchalar sentabr-oktabrda pishib yetiladi va bahorgacha daraxtda saqlanadi. Bahorda ular atrofga yoyilib shamol yordamida tarqaladi. Urug'lari mayda, 1 grammida 1400-1500 dona urug' bo'ladi.

Markaziy Osiyoda quyidagi chinor turlari tarqalgan. SHarq chinori (*Platanus OriyentalsL.*) (1-rasm). Keyingi yillarda sharq chinorining areali kengayishi kuzatilmoqda, chunki u ko'plab madaniy holda o'stirilmoqda. CHinor urug'larini unishi yer ustki tipida. Urug' pallalari cho'zinchoq birinchi bargchalar chekkalari tishchali, navbat bilan joylashgan. CHinor bir uyli mevalari dumoloq dag'al tukli yong'oqcha, diametri 1,5 sm, meva bandida 2—5 tadan o'rashgan, uzoq vaqt to'kilmaydi.



### 1 rasm. Sharq chinori urug'lari

Ushbu turlardan tashqari O'zbekiston sharoitlariga (*Platanus OriyentalsL.*) zarang bargli chinor turi introduksiya qilingan va ko'kalamzorlashtirishda keng foydalilaniladi. Chinor turli tuproq sharoitlarida o'stirish, uning rivojlanishi yetishtirish agrotexnologiyasini o'rganish (mineral o'g'itlar N,P,K va geteroauksin) qo'llashdan iborat.

O'rmon xo'jaligi ilmiy tadqiqot instituti Andijon filiali ilmiy xodimlari tomonidan chinor urug'ini ekish muddatlari, miqdorlari va ekish usullarining ularning o'sishi, rivojlanishi o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Turli tuproq sharoitlarida urug'larni ekish muddatlari, me'yorlari va ekish usullarining o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi jadalligiga ta'siri tahlil qilinmoqda. Agrotexnik tadbirlar – ekish muddatlari va me'yorlari, ekish usullari, o'simliklarni sug'orish va


oziqlantirish muddatlari va usullari o'rganilmoqda. Chinor urug'larini turli muddatlarda bahorda ekib, ularning o'sishi, rivojlanishi o'rganilmoqda.

Hozirgi kunda chinorning 3 xil variantda: mahalliy tuproq, mahalliy chirindi va biogomus sharoitlarida urug'larni unib chiqishi va rivojlanishi bo'yicha tajribalar olib borilmoqda, olingan dastlabki natijalar quyidagi jadvalda va 2-rasmida o'z aksini topgan.

### **Turli sharoitlarda chinor urug'ini unib chiqishi va rivojlanishini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari**

Variantlar	Tajribalar o'tkazilgan sana va olingan natija							
	sana	Unuv-chanlik mm	sana	unuv chanlik, mm	sana	unuv chanlik, mm	sana	unuv chanlik, mm
Tuproq+ apilka	15.03.2 023y	0,1 mm	25.03.2 023y	0,4 mm	04.04.2 023y	9,0 mm	14.04.2 023y	12 mm
Chirindi	15.03.2 023y	0,3 mm	25.03.2 023y	0,6 mm	04.04.2 023y	10 mm	14.04.2 023y	15 mm
Biogomus	15.03.2 023y	0,5 mm	25.03.2 023y	0,9 mm	04.04.2 023y	15 mm	14.04.2 023y	23 mm

Olib borgan tajribamizda 3 xil suptraktlarda ekilgan chinor urug'larini har 10 kunda rivojlanishi bo'yicha monitoring olib borildi, o'tkazilgan tadqiqot natijalari, shuni ko'rsatadiki 1 va 2 variantlardagi, ya'ni tuproq+apilka hamda chirindi arashmalarida sharq chinori urug'lari unuvchanligi bir oz sost va urug'larni unib chiqishi ham sekin bo'ldi. 3 variantimizdagi biogomusga ekilgan urug'lar esa oldingi 2 ta variantga nisbatan unuvchanligi yuqori ko'rsatkichlarni berdi (2-rasm).



**2-rasm. Chinor urug'ini variantlar bo'yicha unib chiqishi va rivojlanishi**

**Xulosa.** 1.Turli tuproq sharoitlarida manzarali chinor (*Platanus*) darxti urug'ini unib chiqishi va rivojlanishi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar 3 variantdagi tuproq sharoitida qolgan sharoitlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lganligini ko'rsatdi.

2. O'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'yicha manzarali sharq chinori urug'larini biogomusda undirib ko'chat tayyorlash tavsiya etiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi PQ-4850-son «O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi Qarori

2. O'zbekiston Respublikasining “O'rmon to'g'risida”gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” gi 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-soni farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

3. Dendrologiya A.K.Qayumov, E.T.Berdiyev, Toshkent Fan texnologiya 2012 yil B. 25–28